



CANADA



CANADA

NODIRA LIRIKASINING O' ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Halimova Dilnoza

Buxoro davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: maqolada Qo`qon xonigida yashagan, sohibdevon shoira Nodirabeginning hayot yo`li hamda ijodiy faoliyati haqida so`z yuritiladi.

Kalit so`zlar: Alisher Navoiy, Nodirabegin, zullisonayn, devon, g`azal, ruboiy, muhabbat, hijron, sog`inch.

Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Lutfiy, Ogahiy, Muqimiy va ko`plab shoirlarning g`azallarini va asarlarini sevib mutoala qilamiz va bu asarlar o`zbek mumtoz adabiyotimizning dur-u gavharlaridir. Ammo biz shu bilan birga o`zining qalb torlarini chertuvchi g`azallari bilan ko`plab she`rxonlarning qalbidan joy olgan shoiralarimiz ham tilga olishimiz lozim. Bunday shoiralarimiz qatoriga Mohlaroyim Nodira, Anbar Otin, Jahon otin Uvaysiy, Dilshodi Barnolarni va boshqa ko`plab shoiralarimizni kiritishimiz mumkin .

Nodirabegin – Qo`qon adabiy muhitining yirik namoyondalaridan biri. Nodiraning otasi Rahmonqulibiy Qo`qon xoni Norbo`tabiy hukmronligi davrida Andijon hokimi bo`lgan. Norbo`tabiy o`limidan so`ng uning katta o`g`li Olimxon va uning vafotidan so`ng Amir Umarxon taxtni egallaydi. Umarxon Nodiraga uylanib, uni Qo`qonga olib ketadi. Nodira nafaqat husnda, balki aql-idrokda, adabiyotga cheksiz muhabbatda, ilm-fanga maylda ham tengsiz edi. U ko`proq Navoiy, Jomiy, Fuzuliy va Bedil asarlarini mutoala qilardi. Uning turmush o`rtog`i Amir Umarxon ham Amiriyl taxallusi bilan ijod qilgan. Mohlaroyim, birinchi navbatda, Amiriyyadan va saroy shoiralaridan adabiyot va she`r mashq qilish haqida maslahatlar olardi. Natijada, juda qisqa muddatda shoira maqomiga yetib, hammaga manzur asarlar yarata boshladi. Nodirabegin zullisonayn shoiradir. U nafaqat o`zbek tili, balki fors-tojik tilida ham ijod qilgan. Shoira o`sha davrda xalq orasida “Nodirayi davron” nomi bilan shuhrat qozongan. U “Komila”, “Maknuna” kabi taxalluslari bilan ham asarlar yaratgan.

Nodira 30 yoshida beva qoladi va o`g`li Madalixon 14 yoshda bo`lganligi sababli saroy ishlarini o`z zimmasiga olishga majbur bo`ladi . Shoira Qo`qonda ko`plab madrasalar, karvonsaroy va saroylar bino qilgan. Shoiraning ayanchli tarzda qatl etilgan.

Shoiraning ijodiy faoliyati juda nafis yozilgan g`azallardan iborat. Shoira adabiy merosi ham son jihatdan, ham o`zining salmog`i, mazmuni va nafosati jihatdan mumtoz she`riyatimizda juda muhim o`rin tutadi. Nodiradan bizgacha 2 ta devon qolgan. Nisbatan to`la hisoblangan turkiy devonida 189 ta g`azali mavjud.

Forsiy she`rlari “Devoni Maknuna” da jamlangan. Komilaning 10000 misraga yaqin asari yetib kelgan. Uning “Nodira-Komila” devonida 253 ta turkiy g`azallar, 1 ta

qasida, 1 ta tajri`band, 1 ta takribband, Navoiy g`azaliga muxammasi, 1 ta musaddas, 2ta musammat, lta firoqnom va 5 ta muxammas o`rin olgan . Devondagi g`azallarning asosiy mavzusi sog`inch, firoq, yorga bo`lgan muhabbatdir. G`azallarida asosan Aloha bo`lgan sevgi hamda ma`shuqaning oshiqqa bo`lgan muhabbati tarannum etiladi.

Nodira turli janrlardan, so`z o`yinlaridan va talmehlardan foydalangan. Navoiy ijodida oshiqning o`z yoriga Layli va Majnun, Farhod va Shirin, Yusuf va Zulayho kabi talmehlarini shoira ijodida ham uchratamiz:

Osha Layli malohat nozanini mohruxsorim,

Meni Majnun kabi sargashtayi dashti balo qildi.(2,148-g`azal,202-varaq)

Iqtibos keltirilgan bayt Nodiraning “Nodira-Komila” devonidagi “Fig`onkim, yor ishqisi sabri ko`nglumdin judo qildi” radifli g`azali sanaladi. Baytda malohatli, oy yuzli, go`zal yorim hajrida meni Majnun kabi dashtlarda sargashtayi sarson qilganligi bayon etiladi.

Navoiy baytida esa:

Demangiz Shirin-u Layli oncha bor husn ichrakim,

Xo`blikda ul sanam avvalarig`a o`xshamas. (4,125-varaq)

Ushbu bayt Alisher Navoiyning “Navodir ul-shabob” devonidagi “Ko`nglum ichra dardu g`am avvalarig`a o`xshamas” radifli g`azalida keltirilgan. Hazrat Navoiy ma`shuqani Shirin-u Laylidek husn ichra go`zal demanglar, u yor shunchallik go`zalki, hech biriga o`xshamaydi deb ta`riflaydilar.

Nodira muhabbat haqida so`z yuritar ekan, an`anaviy takrorlanib kelgan tashbehlardan qochib, o`ziga xos, yangi tasvirlash vositalaridan foydalangan. Masalan:

Nodira , jomi muhabbatni labolab ichibon,

Mastliq birla qilay ishq namozini ado. (5,88-varaq)

Muhabbat mayidan sarxush bo`lib, ishq namozini ado etmoq o`zbek she`riyatida faqat Nodiraga mansub ixtirodir. Shoira muhabbatni komil insonning nishonasi sifatida ko`rgan va usiz insonni inson qatorida sanamagan. Shu mazmundagi misralarni Nodiraning yana bir she`rida ham kuzatishimiz mumkin:

Muhabbatsiz kishi odam emasdur,

Gar odamsan, muhabbat ixtiyor et .(5,88-varaq)

Nodira hayotining so`nggi yigirma yilini umr yo`ldoshidan ayro tarzda o`tkazdi. Uning asarlarlarida sog`inch va hijron mavzulari yetakchi o`ringa chiqdi. Shoiraning ayriliq va hijron mavzusidagi maxsus asari “Firoqnom”dir. Ushbu asar muashshar janrida bitilgan, ya`ni har bandi o`n misradan iborat bo`lgan shaklda yozilgan. O`n banddan, ya`ni yuz misradan iborat bu asarning har bandi:

Hech kim, Yo Rab , jahonda yoridan ayrilmasun,

Jondin ortuq, mehribon dildoridin ayrilmasun .

misrasi bilan tugallagan. Bundan tashqari, Nodira ijodida ruboiy janri ham o`rin egallagan. Nodira devoning debochasida 2 ta ruboiy mavjud.

Masalan:

Alvon g`azal yig`ildi devon o`ldi.
Devon demakim, rashki guliston o`ldi.
Hijronda so`zlarim parishon erdi,
Har kim o`qidi , tabi parishon o`ldi.(3, 53-varaq)

Ushbu ruboiy a-a-b-a tarzida qofiyalangan bo`lib, xosiy ruboiydir. Qofiyadosh so`zlar “devon”, “guliston”, “parishon”. “N” tovushi raviy bo`lib kelgan. “O`ldi” so`zi radif. Shoira g`azallarini alvon rangga qiyoslaydi, alvon – qizil rang degani.

Biz shoira Nodirani fozila, olima , fidokor va haqiqiy adabiyot shaydosi, o`z asarlarini bilan adabiyot ixlosmandlari qalbidan chuqur o`rin olgan salohiyatli shoira sifatida xotirlaymiz. Uning g`azallaridagi o`ziga xos jilo, tug`yon, his-hayajon va muhabbat har bir insonning ko`nglida o`zgacha bir tuyg`ular ummonini yaratmasdan qo`ymaydi.

FOYDALANIILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kuzikulov I. Qo`qon xonligi tarixi. Namangan nashriyoti .2014.
2. Qodirova M. Nodira.Devon. Toshkent: O`z.SSR Fanlar Akademiyasi nashriyoti, 1963.11-bet.
3. “Nodira-Komila” devoni. Toshkent. 2001.
4. Alisher Navoiy “Navodir ul-shabob”.
- 5.To`xtasin Jalolov O`zbek shoiralari I kitob (Nodira)-Toshkent:G`afur Gulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti,1980.-B.88